WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANIDA ISMLAR TILSIMIYATI VA MUALLIF TAFAKKURINING MANTIQIY-TANQIDIY TALQINI

Xayrullayeva Larisa Erkin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Axadova Shodiya Jamoliddin qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili)

1-bosqich talabasi

Kirish.

O‘zbek adabiyotida roman janrining asoschisi sifatida e’tirof etilgan Abdulla Qodiriy milliy tafakkur, tarixiy xotira va ijtimoiy ongni uyg‘otishda beqiyos xizmat qilgan ijodkordir. Uning “O‘tgan kunlar” romani nafaqat o‘z davrining muhim tarixiy-badiiy hujjati, balki insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va jamiyat muammolarini chuqur tahlil qilgan asardir. Mazkur roman yuzaki qaraganda sevgi qissasi sifatida ko‘rinsa-da, aslida u murakkab ijtimoiy-falsafiy qatlamlarga ega.

Kalit so‘zlar: badiiy ramziylik, obraz va xarakter, Otabek obrazi, Kumush obrazi, Zaynab obrazi, O‘zbekoyim obrazi ijtimoiy muammolar, jadidchilik g‘oyasi, yangilanish konsepsiyasi, tanqidiy tahlil, milliy tafakkur, adabiy talqin

Asosiy qism. Asarda qahramonlar nomlari oddiy tasodifiy tanlov emas, balki muallifning g‘oyaviy niyatini ochib beruvchi muhim badiiy vositadir. Ushbu maqolada “O‘tgan kunlar” romanidagi ismlar tilsimiyati, ularning semantik yuklamasi hamda Qodiriyning asl niyati mantiqiy va tanqidiy asosda tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslikda qahramon nomlari ko‘pincha obraz mohiyatini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Qodiriy bu imkoniyatdan mahorat bilan foydalanib, har bir ismni ma’lum bir g‘oya va xarakter bilan uyg‘unlashtiradi.

Otabek obrazi – romanning markaziy qahramoni. Uning nomi “ota” va “bek” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, yetakchilik, mas’uliyat va hurmat ramzidir. Otabek o‘z davrining yangicha fikrlovchi, savdo-sotiqda halollikni ustuvor qo‘ygan, jamiyatdagi eskicha qarashlarga qarshi turgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Demak, uning nomi bevosita uning ijtimoiy missiyasini ifodalaydi: u millatning “tayanchi” bo‘lishi kerak bo‘lgan inson timsolidir.

Kumush obrazi esa poklik va latofat timsolidir. Kumush – qimmatbaho, ammo oltindan ko‘ra nozikroq metall. Bu obraz orqali Qodiriy ayolning nafis ruhiyatini, sadoqatini va ichki go‘zalligini ifodalaydi. Kumushning fojiaviy taqdiri esa jamiyatdagi adolatsizlik, ayniqsa ayollar taqdiriga befarqlikning ramziy ifodasidir. Bu yerda “kumush”ning tez xiralashishi timsoli ham yashirin ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

KUMUSHGA

Men Kumushni yomon ko‘raman!

Guldan go‘zal suluv bo‘lsa ham.

Tushunsamda iztiroblarin,

Kiprimga kelmas zarra nam.

Anglamayman goho maqsadin,

Unda yo‘qmi rashk degan tuyg‘u?

Otabek va aybsiz Zaynabning

Kulfatlarin sababchisi u.

U men uchun qaxramon emas,

O‘zbekning bir ilojsiz qizi.

Bo‘lar hatto jonivorlarda

O‘z juftini qizg‘anish hissi.

Bo‘lsa hamki yetarli aqli

O‘tolmadi odamday yashab.

Kuydirgancha ota onasin,

O‘lib ketdi nomardga o‘xshab.

Bo‘lmasmidi og‘ir fojea,

Vazifasin anglab yetganda.

Eshitiboq kundosh xabarin,

Yor uyiga jo‘nab ketganda.

Xon qaxridan qo‘rqmagan ayol

O‘z ertasin g‘amin yemadi.

"Men rozi" deb shivirladiyu,

"Olib keting, begim" demadi.

Shirin yoki Ra’no deng mayli,

Uning ismin qo‘ymang qizlarga.

Ko‘nuvchanlik va qurbonlikda

Yaqqol o‘rnak bo‘lgan bizlarga...

(Shodiya Axadova)

Zaynab nomi esa o‘ziga xos ziddiyatli qatlamga ega. Lug‘aviy jihatdan go‘zallik va bezak ma’nosini anglatsa-da, romanda bu obraz rashk, ichki kurash va ruhiy notinchlik bilan bog‘lanadi. Bu orqali Qodiriy inson nomi bilan uning ichki dunyosi o‘rtasida doimiy uyg‘unlik bo‘lavermasligini ko‘rsatadi. Ya’ni, tashqi “go‘zallik” ichki murakkablikni yashirishi mumkin.

Hasanali obrazi orqali esa oddiy xalq vakili, sadoqatli va halol inson timsoli yaratilgan. Bu nomdagi “Hasan” (yaxshi) komponenti uning ijobiy fazilatlarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, romandagi ismlar tizimi – bu shunchaki identifikatsiya vositasi emas, balki badiiy-falsafiy koddir. U orqali muallif o‘quvchini chuqurroq fikrlashga undaydi.

“O‘tgan kunlar” romani yuzaki qaraganda sevgi fojiasi haqida bo‘lsa-da, aslida u jamiyatni isloh qilish g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan. Birinchidan, Qodiriy eskicha ijtimoiy tuzumni tanqid qiladi. Ko‘pxotinlilik, ayollarning huquqsizligi, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik kabi illatlar romanda keskin qoralanadi. Kumush va Zaynab o‘rtasidagi ziddiyat aslida tizimning noto‘g‘riligidan kelib chiqadi, bu shaxsiy emas, balki ijtimoiy muammo sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, muallif yangilanish g‘oyasini ilgari suradi. Otabek obrazi orqali savdo madaniyatini rivojlantirish, halollik va adolatni ustuvor qo‘yish, zamonaviy fikrlashni targ‘ib etadi. Bu jihatdan qaraganda, Otabek – muallif idealining ifodasidir. Uchinchidan, Qodiriy psixologik realizmga yaqinlashadi. Ayniqsa Zaynab obrazida inson ruhiyatidagi murakkabliklar, rashk va iztirobning ichki mexanizmlari ochib beriladi. Bu esa romanning oddiy syujetdan ko‘ra chuqurroq qatlamga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mantiqiy va tanqidiy tahlil nuqtai nazaridan romanda ayrim bahsli jihatlar ham mavjud.

Avvalo, Otabek obrazi haddan tashqari idealizatsiya qilingan. U deyarli kamchiliklarsiz tasvirlangan bo‘lib, bu realizm tamoyillariga qisman zid keladi. Real hayotda bunday mukammal inson kam uchraydi. Ikkinchidan, Kumush obrazi passivlikka moyil. U ko‘proq voqealar ta’sirida harakat qiladi, mustaqil qaror qabul qilish darajasi pastroq. Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, bu ayol obrazining chegaralanganligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, romanda ayollar fojiaviy qismat bilan bog‘langan. Bu esa muallif yashagan davr ijtimoiy muhitining ta’siri bilan izohlanadi. Qodiriy aslida bu orqali jamiyatni tanqid qilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda bu holat takrorlanib ketadi. Shunga qaramay, ushbu jihatlar asarning umumiy badiiy va tarixiy qiymatini pasaytirmaydi, aksincha, uni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Qodiriy o‘z asarlarida katta, sirli ma’nolarni ifoda etgan. Go‘yoki asardagi har bir qahramon obrazida qandaydir yashirin ma’no bordek. “1269-inchi hijriy yilning dalv oyining 17-qishki kunlaridan biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...”[1] Qodiriy romani kirish qismini nega aynan qish oyidan, aynan shom azonidan boshlagani ajablanarli. Nega aynan qish? Kuz, bahor yoki yoz oylarini tanlasa ham bo‘lardi-ku. Yoki shom namozi o‘rniga peshin, bomdod namozini qo‘ysa ham bo‘lardi.

[1] Qodiriy, A. O‘tgan kunlar: Roman. – Toshkent: Sharq, 2019. – B 1



Tohir Malik shunday fikr bildiradi, “Shom – qorong‘ulik yaqinlashib qolishidan darak. Dalvda kechalar uzun, yorug‘lik esa kamroq bo‘ladi. Shom azoni yurt boshiga yopirilib kelayotgan qora kunlardan xabar beruvchi darak emasmikan?”[2]

Asarda azon chaqirilishi bir necha marotaba zikr etiladi, ammo biror marta ham namoz tasviri berilmaydi. Asarda hech bir narsa shunchaki yozilmagan. Hatto asar qahramonlarining ismlarida ham qandaydir yashirin ma’no bordek. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nega Otabekning onasiga aynan “O‘zbekoyim” deb ism qo‘yilgan? Axir bu kabi ismlarni deyarli uchratmaymiz. Balki, O‘zbekoyim – o‘zbek xalqi ramzidir. U – bid’at va xurofotga berilgan, yurtni xavfdan ogoh etuvchi chaqiriqlarga e’tibor bermagan o‘zbek xalqi timsolidir. U e’tiborsizligi bilan to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi maslahatlarni rad etadi. Asar so‘ngida esa “O‘zbekoyim qora kiyib ta’ziya ochdi”[3].

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yozishni yakunlar ekan, “Kumushni o‘ldirib qo‘ydim”, deb yig‘lagan ekan. Qodiriyni aynan qaysi jihat yig‘lashga majbur qilgan bo‘lishi mumkin? Yosh, go‘zal juvon Kumushning o‘limimi? Yoki bunda qandaydir chuqurroq ma’no bormi? Axir adib Kumushning taqdirini o‘zgartirib yuborsa bo‘lardi-ku. Yo‘q, demak Qodiriyni yig‘latgan sabab Kumush emas, balki undagi yashirin ramz edi. Kumush – vatan ramzi edi. Qodiriyning Kumushga bo‘lgan muhabbati uning yurtiga bo‘lgan sevgisi edi. Kumush o‘ldi –vatan o‘ldi. O‘zbek xalqi qora kiyib a’za ochdi. Lekin Kumushdan bir zurriyot qoldi – Yodgor. Bu esa kelajak uchun bir umid edi.

Xulosa. O‘tgan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining durdona asari sifatida nafaqat tarixiy voqealarni yoritadi, balki inson ruhiyati va jamiyat

[2] https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/tohir-malik-ajab-saodat.html
[3] https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/tohir-malik-ajab-saodat.html

muammolarini ham chuqur tahlil qiladi. Qodiriy qahramonlar ismlari orqali ularning taqdirini, xarakterini va ijtimoiy rolini oldindan belgilab beradi. Bu esa asarni ko‘p qatlamli va ramziy ma’nolarga boy qiladi. Muallifning asl niyati – jamiyatni uyg‘otish, adolat va ma’rifatni targ‘ib qilish, eskicha qarashlardan voz kechishga chaqirishdir. Shu sababli, “O‘tgan kunlar” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va har bir avlod uchun yangi ma’no kasb etishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. “O‘tgan kunlar” roman. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’ati nashriyoti. 1980-yil.

2. Qodiriy, A. O‘tgan kunlar: Roman. – Toshkent: Sharq, 2019. – B 400

3. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar” roman. – Toshkent. Sharq nashriyoti. 1992-yil.

4. Aliev A. Abdulla Qodiriy. – Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967-yil.

6. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti (darslik). – Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti. 2004-yil.

7. Mirvaliev S. “Abdulla Qodiriy”. – Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2004-yil.

8. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti. 1994-yil. 9. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. – Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 2010 yil. 204-bet

9. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/tohir-malik-ajab-saodat.html